

YANGI KONSTITUTSIYA

Azimov Farxod Teshaboyevich

Kamoliddin Bexzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti

SMF fakulteti 2 bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Jumayeva Sevara Dusmuratovna

Kamoliddin Bexzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti

SMF fakulteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumxalq referendumi asosida qabul qilingan yangi Konstitutsiyaning afzallik tomonlari ochib beriladi. 1992 yildan buyon O'zbekiston Konstitutsiyasiga jami 15 marta o'zgartish kiritilgan edi. Bu safar esa o'zgarishlar ko'lamini kattaligi sabab hujjatning yangi tahriri qabul qilindi. Yangilanish natijasida, bosh qomusdagi moddalar soni 128 tadan 155 taga oshdi.

Kalit so'zlar: referendum, suveren, ijtimoiy, bag'rikenglik, kafolat, inson manfaatlari

Аннотация: В данной статье раскрываются преимущества новой Конституции, принятой на основе всенародного референдума. С 1992 года в Конституцию Узбекистана вносились изменения 15 раз. На этот раз из-за масштабности изменений была принята новая редакция документа. В результате обновления количество статей в основном словаре увеличилось со 128 до 155.

Ключевые слова: референдум, суверенность, социальный, толерантность, гарантия, интересы человека.

Abstract: This article reveals the advantages of the new Constitution, adopted on the basis of a popular referendum. Since 1992, the Constitution of Uzbekistan has been amended 15 times. This time, due to the scale of the changes, a new edition of the document was adopted. As a result of the update, the number of entries in the main dictionary increased from 128 to 155.

Keywords: referendum, sovereignty, social, tolerance, guarantee, human interests. Bugungi kunda dunyoda fundamental transformatsiya jarayonlari va raqobat kuchaymoqda. Ertangi kunni o'ylaydigan xalqlar va davlatlar o'z kelajagiga har qachongidan ko'ra jiddiyroq munosabatda bo'ladi. O'tgan yillar mobaynida

O‘zbekistonda konstitutsiyaviy islohotni amalga oshirishni davrning o‘zi taqozo qilayotgan edi. Chunki Konstitutsiya suveren demokratik davlat qurishning asosiy xukukiy va qonunchilik bazasi sifatida zamon talablariga javob berishi kerak. Uning ustuvor yo‘nalishlaridan biri — iqtisodiy islohotlar va boshqa sohalardagi o‘zgarishlar jarayonini amalga oshirishda inson manfaatlarini taminlashdir.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoev boshchiligidagi keng qamrovli demokratik islohotlar amalga oshirilmoqda. Siyosiy, ma‘muriy, huquqiy, ijtimoiy, diniy, iqtisodiy, savdo va boshqa yo‘nalishlarda ro‘y bergan o‘zgarishlar va muvaffaqiyatli islohotlar jarayonlari ortga qaytmas bo‘layotgani bilan e‘tiborlidir. Bu islohotlar jarayoni Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘rtasidagi mintakaviy hamkorlikning rivojlanishiga va sifat jihatidan yangi bosqichga chiqishida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mamlakatimizda yangilangan Konstitutsiyamizga juda ko‘p o‘zgartirishlar kiritilgan. Masalan, ushbu o‘zgartirishlarning o‘ziga xos jihatlaridan biri sifatida atrof-muhitni muhofaza qilish, atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va himoya qilish yuzasidan chora-tadbirlarni amalga oshirishi to‘g‘risidagi normaning Konstitutsiyaga kiritilishi dunyo hamjamiyatining ekologik muvozanatni saqlashga qaratilgan faoliyatiga O‘zbekiston ham o‘z hissasini qo‘shishga bel bog‘laganligini ko‘rsatadi.

Prezidentimiz hamisha ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish, fuqarolarni zarur uy-joy, sifatli ta‘lim, tibbiy xizmat, toza ichimlik suvi, munosib ish haqi, xavfsiz mehnat sharoitini yaratish, aholi turmush tarzini yaxshilash bugungi kundagi eng muhim vazifa ekanini ta‘kidlab keladi. “O‘zbekiston — ijtimoiy davlat” degan tamoyil Asosiy Qonunda mustahkamlash konstitutsiyaviy islohotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lishini bildiradi. Erkin va adolatli fuqarolik jamiyati rivojlanishi bilan bog‘liq masalalar har qanday jamiyatda ustuvor hisoblanadi. Bu borada mahalla institutini ezgulik va milliy an‘analar beshigi sifatida rivojlantirish har tomonlama o‘rinli va dolzarbdur. Hozir O‘zbekistonda insonparvar, demokratik xukukiy davlat qurish masalasi ustuvor yo‘nalish va bu borada davlat organlari faoliyatida ochiqlik, oshkoralik va hisobdorlikni ta‘minlash qoidalariga aloxida e‘tibor qaratilmoqda.

Oliy Majlisning hukumatni shakllantirish va muhim lavozimlarga tayinlash bo‘yicha vakolatlarini kengaytirish, joylarda hokimiyatning bo‘linishi tamoyilini hayotga tatbiq etish, mahalliy Kengashlar faoliyati samaradorligini yuksaltirish,



hokimlarning xalq vakillari oldidagi mas'uliyatini oshirish masalalari bugungi kundagi islohotlar jarayonining muhim qismidir. Konstitutsiyamizda aks etgan "O'zbekiston barcha davlatlar, eng avvalo, o'zining yaqin qo'shnilari bilan tinchlikparvar va do'stona siyosat yuritishi, uning tashqi siyosati inson huquq va erkinliklarini hurmat qilish, davlatlarning hududiy yaxlitligiga oid prinsip va normalarga asoslanishi" haqidagi modda O'zbekistonning mintaqada olib borayotgan ochiq, do'stona tashqi siyosatida qat'iy ekanini bildiradi.

Bundan tashqari, taklif qilingan konstitutsiyaviy islohotlarning referendum yo'li bilan amalga oshirilgani Asosiy Qonunning mamlakatdagi har bir fuqaroning farovon hayoti va kelajagi uchun tutgan ahamiyatini ko'rsatadi.

Asosiy Qomusimizda konstitutsiyaviy islohotlarning eng muhim jihati sifatida inson, jamiyat va davlat o'rtasida mustahkam ko'prik barpo etish maqsad qilingan. Konstitutsiya qotib qolgan dogma emas, u doimiy ravishda iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy o'zgarishlarga qarab zamon talablariga hamohang ravishda yangilanishi lozim. Siyosiy sohadagi islohotlar vaqt va izchil sa'y- harakatlarni talab qiluvchi murakkab jarayon hisoblanadi. Bu jarayon davomida parlament, prezidentlik, sud, siyosiy partiyalar, saylov tizimiga bosqichma-bosqich va aniq o'zgartishlar kiritiladi. Ushbu islohotlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi davlat va jamiyatning demokratlashuvini kafolatlaydi.

Yangilangan Konstitutsiyada inson, uning hayoti, erkinligi, qadr-qimmati, daxlsiz xukuqlari va manfaatlari ustuvor masala ekanligiga alohida urg'u berilgan. Xususan, o'lim jazosining mamlakatda bekor qilinganligi konstitutsiyaviy mustahkamlandi, huquq-tartibot organlari tomonidan shaxs qo'lga olinganida uning huquqlari va nima sababdan ushlanganini sodda tilda tushuntirish, "Xabeas korpus" institutini rivojlantirish, sudlangan shaxslarning qarindoshlari mahkumning qilmishlari uchun jabr tortmasliklari ko'zda tutildi. Mazkur masalalarda tegishli normalar Konstitutsiyada aks ettirildi.

O'zbekistondagi konstitutsiyaviy islohotlar, butun mintaq uchun juda istiqbolli va alohida ahamiyatga ega, deb o'ylayman. Men ularni juda ijobiy deb bilaman, chunki islohotlar fuqarolarning huquqlarini avvalgidan ko'ra aniqroq belgilaydi, shu bilan birga, adolatning rolini oshiradi, O'zbekistonning ijtimoiy davlat va adolatli jamiyat qurishdagi intilishlarini ifodalaydi.



Viloyatlar rahbarlari bir vaqtning o'zida xalq deputatlari Kengashlariga rahbarlik qilishi to'g'risidagi normani Konstitutsiyadan chiqarib tashlash nafaqat byurokratiyadan xalos etadi, balki mahalliy darajadagi hokimiyat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati darajasini oshiradi. 100 ming kishidan iborat fuqarolar guruhiga davlat manfaatlarini ilgari suruvchi qonunchilik tashabbusi huquqini berish ham ahamiyatlidir. Mening fikrimcha, jamiyatda Konstitutsiyaviy hukuk instituti tashkil etilishi va ushbu muassasaga Konstitutsiya, konstitutsionizm va fuqarolarning xukuqlari hamda burchlarini muhokama qilish vakoltalarini berish kerak. Ana shundagina bu e'tibor islohotlar samaradorligini ta'minlovchi mustahqam poydevor bo'ladi.

Bugun O'zbekistonning faol diplomatik sa'y-harakatlari va yaxshi qo'shnichilik siyosati mintaqa taraqqiyotining harakatlantiruvchi kuchiga aylandi. SHu bilan birga, O'zbekiston yakka ijrochi emas, balki o'tmishdagidan ko'ra bir-birini yaxshiroq tushuna boshlagan, umumiy til topa olgan va muammolarni hal qilish uchun birlashayotgan Markaziy Osiyo davlatlarining teng a'zosi sifatida mintaqa rivojlanishiga katta hissa qo'shmoqda. O'zbekistondagi konstitutsiyaviy islohotlar o'zbek davlatchiligi, fuqarolik jamiyatini yanada mustahkamlashga qaratilgan. Ayniqsa, Bosh qomusga kiritilgan o'zgartirishlar, xususan, Konstitutsiyada inson, uning hayoti va qadr-qimmatini ulug'lash, erkin va adolatli fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, O'zbekistonda insonparvar, demokratik huquqiy davlat qurish g'oyalarini mustahqamlash, ekologik-huquqiy normalar va elektron hukumatni rivojlantirish asoslarining ifoda etilgani dunyo hamjamiyati tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda. Barchamizga ma'lumki, ijtimoiy davlat muhtojlarga uy-joy, yashash uchun zarur bo'lgan iste'mol tovarlarining eng kam miqdori belgilab qo'yilishini nazarda tutadi. U shaxs va uning oilasi munosib hayot kechirishi uchun etadigan ish haqi, kambag'allikni qisqartirish, bandlikni ta'minlash, xavfsiz mehnat sharoitini yaratishni talab qiladi. Bu kabi omillarning deyarli chegarasi ko'rinmaydi. Yangilangan Konstitutsiyamiz ana shunday oliy niyatlarni amalga oshirishni ko'zda tutadi.

Ko'pmillatli mamlakat sifatida O'zbekistonda millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik hukm surib kelmoqda. Bu holat yurtimizdagi siyosiy barqarorlikning eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. Konstitutsiyamizning 4-moddasida quyidagi jumlar qayd etilgan



“O‘zbekiston Respublikasining davlat tili o‘zbek tilidir. O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlar va an‘analari hurmat qilinishini ta‘minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi”. Asosiy qonunimizning bu talablari mamlakatda izchil amaliyotga tatbiq etilib, YAngi O‘zbekiston sharoitida mazmunan yanada boyib, yurtimizda yashayotgan barcha millat va elatlarning xohish va irodasiga muvofiq tobora rivojlantirilmoqda.

Vazirlar Mahkamasida huzurida tashkil etilgan Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasi o‘z atrofiga respublikamizdagi 140 ga yaqin milliy-madaniy markazlarni birlashtirgan. Qo‘mita davlat organlarining respublika hududida joylashgan har bir markaz, shuningdek, do‘stlik jamiyatlari bilan o‘zaro aloqa va hamkorligini ta‘minlashda, jamiyatimizda do‘stlik va ko‘p millatli yagona oila tuyg‘usi muhitini mustahkamlashda, kelajak avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashda haqiqiy shtab vazifasini bajarmoqda. Respublika maqomidagi milliy-madaniy markazlar aynan shu qo‘mita binosida joylashgan. Har bir bayramda markazlar o‘z dasturlari bilan elning quvonchiga sherik bo‘lib, tantanalarga shukuh bag‘ishlab kelmoqda. “Ma‘rifat va millatlararo bag‘rikenglik shiori ostida o‘tkaziladigan “Bag‘rikenglik haftaligi”da har bir milliy madaniy markaz, barcha diniy konfessiyalar vakillari totuvlikda turli tadbirlarda ishtirok etmoqda. Bundan tashqari, mamlakatimizda bugungi kunda 7 tilda ta‘lim olib borilmoqda. Rus, tojik va qozoq tillarida respublika nashrlari faoliyat yuritmoqda. O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi qoshida qardosh xalqlari adabiyoti kengashlari samarali ishlamoqda. Bularning hammasi Asosiy qonunimizning g‘oyalari, har bir moddasi barhayot va hayotbaxsh ekanligidan dalolat beradi. O‘zbekistonning millatlararo totuvlikni ta‘minlashdagi boy tajribasi esa mamlakatimizning xalqaro maydonidagi nufuzini yanada ko‘tarmoqda.

2024 yilning 17 oktabrda Prezident Shavkat Mirziyoevning “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida”gi farmoyishi qabul qilindi. Unga ko‘ra, Konstitutsiyaning 32 yilligini munosib kutib olish va yuksak saviyada nishonlash maqsadida “Konstitutsiya – erkin va farovon hayot garovi!” degan bosh g‘oyani o‘zida mujassam etgan tashkiliy-amaliy hamda ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlar tashkil etilmoqda.



SHuningdek, yangilangan Konstitutsiya mazmun-mohiyati va “O‘zbekiston – 2030” strategiyasining asosiy ustuvor yo‘nalishlari doirasida belgilangan tub islohotlar haqida mahallalar, ta’lim va mehnat jamoalarida ma’rifiy uchrashuv va suhbatlar o‘tkazilib, so‘nggi yillarda iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy-ma’naviy hayotning turli sohalarida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar va bu borada erishilayotgan natijalarni mustahkamlashda yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning o‘rni va roli yig‘ilganlarga tushuntirib berilmoqda. «Konstitutsiya – erkin va farovon hayot garovi!» degan hayotiy shiorning mohiyati va ahamiyatini, yangi tahrirdagi Konstitutsiya asosida inson huquq va erkinliklari sohasida mutlaqo yangi bosqichga o‘tilganligini ochib berish, mulkiy huquqlarning ishonchli himoyasini ta’minlash, sog‘liqni saqlash, ilm-fan, madaniyat, san’at va sport sohalarini rivojlantirish, nuroniyalar, xotin-qizlar va yoshlarga doimiy e’tibor va g‘amxo‘rlik ko‘rsatish, oila, onalik, bolalik va otalikni himoya qilish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlarning ahamiyatini keng targ‘ib qilish o‘tkazilayotgan uchrashuvlarning mazmundorligini ta’minlamoqda. O‘zbekistonda boshlangan ulkan islohotlarni samarali amalga oshirishda yangilangan Konstitutsiyamizning ahamiyati kun sayin tobora ortib borayotganini hayotning o‘zi ko‘rsatmoqda. SHuning uchun uni chuqur va har tomonlama o‘rganish, anglash, unga amal qilishni hayot tajribasiga aylantirish biz yoshlarni yutuq va muvaffaqiyatlarga yo‘naltiradi.

Bir so‘z bilan aytganda, O‘zbekistonning yangilangan Konstitutsiyasi mamlakatning uzoq muddatli taraqqiyot strategiyasining mustahkam xukukiy asosi va ishonchli kafolati sifatida xalqimizning ertangi farovon hayotini ta’minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi “O‘zbekiston” nashriyoti. Toshkent – 2023 y.
- 2.O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga sharhlar. “O‘zbekiston” nashriyoti. Toshkent – 2023 y.
- 3.Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyat tizimida tubdan takomillashtirish to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Farmoni. 2019 y.

